

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Rasulova	
Andijon viloyati geomorfologik oykonimlari xususida	313
D.M.Gaziyeva	
Hozirgi kommunikativ maydonda mediamatnning o'rne.....	316
M.M.Gazieva	
Implitsitlik kategoriyasining lingvokognitiv va pragmalingvistik asoslari	321
U.Sh.To'rayeva	
Terminlar tarjimasining nazariy va amaliy asoslari	325
Q.Sh.Kaxarov, Z.M.Xusanova	
O'zbek va nemis tillarida motam bilan bog'liq shaxs, narsa, predmet va joy nomlari	328

FANIMIZ FIDOYILARI

MUXTORALI ZOKIROV	333
--------------------------------	-----

ANDIJON VILOYATI GEOMORFOLOGIK OYKONIMLARI XUSUSIDA
ОБ ОСОБЕННОСТЯХ GEOMORFOLOGICHESKIX OYKONIMOV ANDIJANSKOY
ОБЛАСТИ

ON THE FEATURES OF GEOMORPHOLOGICAL OIKONYMS OF THE ANDIJAN
REGION

Rasulova Gulnora¹

¹Rasulova Gulnora

—Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada geomorfologik oykonimlar termini tahlili va talqini, hududning tabiiy, geografik jihatlarini motivatsiyasi asosida nomlangan aholi manzillari: qishloq, mahalla nomlari – tabiiy-geografik oykonimlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan yerning relf tuzilishi xususiyatlari motivi bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan Andijon viloyati geomorfologik oykonimlarining leksik-semantik, struktural, derivatsion xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируются лексико-семантические, структурные, деривационные особенности геоморфологических ойконимов, даётся толкование наименований населённых пунктов, мотивированных природно-географическими особенностями местности, а именно, основных видов природно-географических ойконимов – названия сёл, махаллей Андижанской области, мотивированных особенностями строения рельефа земли.

Abstract

The article analyzes the lexico-semantic, structural, derivational features of geomorphological oikonyms, gives an interpretation of the names of settlements motivated by the natural and geographical features of the area, namely, the main types of natural and geographical oikonyms – the names of villages, mahallas of the Andijan region, motivated by the features of the structure of the relief of the land.

Kalit so'zlar: oykonim, tabiiy-geografik oykonim, motiv, motivatsiya, geomorfologik oykonim, leksik asos (lug'aviy asos), oykonimik indikator, geografik termin.

Ключевые слова: ойконим, природно-географический ойконим, мотив, мотивация, геоморфологический ойконим, лексическая основа (словарная база), ойконимический показатель, географический термин.

Key words: oikonym, natural-geographical oikonym, motive, motivation, geomorphological oikonym, lexical basis (dictionary base), oikonymic indicator, geographical term.

KIRISH

Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy, tabiiy-geografik mohiyatga ega toponimlarning eng qadimiy va asosiy turi oykonimlar: shahar, shaharcha, qishloq va mahalla nomlardir. Hududning tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar motivatsiyasi asosida nomlangan aholi manzillarining nomlari tabiiy-geografik oykonimlar deb ataladi. Bunday oykonimlarning bir turi – hududning relf tuzilish xususiyatlari motivatsiyasi asosida nomlangan aholi maskanlari bo'lib, ular **geomorfologik oykonimlar** hisoblanadi.

Geomorfologik oykonimlar hududning yer yuzasi shakllari: tekislik, tog'lik, qir, tepalik, jarlik, soylik, chuqurliklarga nisbat berish bilan nomlangan mahalla, qishloq, shaharcha va shaharlarning atoqli nomlaridir.

Geomorfologik oykonimlarning fonetik, leksik-semantik, yasalish, grammatik xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Geomorfologik oykonimlar rus tili toponimikasida K.S.Gorbachevich, o'zbek tili toponimikasida Z.Do'simov, T.Nafasov, S.Qorayev, N.Oxunova va Yu.Ne'matovalarning ishlarida tahlil qilingan.

Yu.Ne'matova tabiiy-geografik oykonimlarning bu tipini yerning geomorfologik xususiyatlarini motivga olish asosida nomlangan aholi manzillari deb izohlaydi hamda ayrim ilmiy manbalarda bunday shahar, shaharcha va qishloq nomlari **oykonimlar** termini ostida o'rganilishini,

biroq bu tipdagi nomlarning xususiyatlarini orooykonimlarga nisbatan **geomorfologik oykonimlar** termini mukammalroq ifodalashini qayd etadi [1:48]. Biz ham bu talqinga qo'shilgan holda, geomorfologik oykonimlar terminini qo'lladik.

NATIJA VA TAHLILLAR

K.S.Gorbachevich geomorfologik oykonimlar haqida fikr yuritib, vaqt o'tishi bilan nomlangan obyektning relʼefi o'zgarsa-da, avvalgi relʼefni ifoda qilgan nom saqlanib qoladi, deb ko'rsatadi [2:61]. Bu Andijon viloyati toponimiyasiga mansub *Ashqoltepa* (Qo'rg'ontepa t.), *Cho'qqitepa* (And. t.), *Toshtepa* (Asaka t.), *Qumtepa* (Oltinko'l t.) kabi geomorfologik oykonimlarida yorqin kuzatiladi.

Viloyat geomorfologik oykonimlarini lug'aviy va motivatsion asosiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. **Jar, yor tarkibli oykonimlar.** Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *yor, jar* apellyativlari *o'yilgan yer* ma'nosini anglatishi qayd etilgan [3]. So'zga izohli lug'atda quyidagicha izoh berilgan: **Jar** [f. yerning chuqur, o'yiqlik joyi] Chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik [4:73].

Jar so'zi tabiiy-geografik termin sifatida *o'yilgan, salbiy relʼefga ega bo'lgan joy* ma'nosini anglatadi. Jar tog' etagi qiyaliklarida, zamini yumshoq tekisliklarda ko'plab uchraydigan, oqar suvlar yerni yuvib ketishi natijasida hosil bo'lgan chuqurliklardir. *Jar* umuman *chuqurlik, pastlik* ma'nosini ham ifodalaydi.

T.Nafasov *jar* so'ziga *o'yiqlik, katta yoriqlik* degan izoh beradi va u vositasida yasalgan Qashqadaryo viloyati toponimiyasiga mansub *Qiziljar, Oqjar, Jar tepa, Yortepa* kabi oykonimlarni keltiradi [5:25].

Jar so'zi qadimiy bo'lib, uning tarqalish areali keng. Qadimgi turkiy tilda *jar yor* fonetik variantlarida, hozirgi o'zbek tili shevalarida ham xuddi shu variantlarda, jumladan, ozarbayjon tilida *yar*, bolqor, qozoq, qirg'iz, oltoy tillarida *jar*, xakas tilida *char*, slavyan, xususan, ukrain tilida *yar*, belorus va polyak tillarida *jar* variantlarida qo'llanadi [6:650-651].

Jar apellyativi yuqoridagi ma'nolarda toponimlar hosil qilishda ham faol qo'llanadi. Andijon viloyati geomorfologik oykonimlari sirasida ham *jar* tarkibli qishloq, mahalla nomlari kuzatiladi:

Jarqishloq – Marhamat tumanidagi qishloq. Tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli oykonim *jar* (suv yuvib hosil bo'lgan tik chuqurlik) apellyativi va *qishloq* indikatoridan tarkib topgan. Qishloq suv yuvib hosil qilgan tik chuqurlik atrofida joylashganligiga ko'ra *Jarqishloq* nomini olgan. Demak, *Jarqishloq* oykonimi *chuqurlik atrofidagi aholi manzili* toponimik ma'nosiga ega.

Leksikografik talqinlarga ko'ra, *jar, yor* so'zlari aynan bir so'z. Demak, aynan bir so'zning fonetik variantlaridir. *Yor* umumturkiy so'z bo'lib, barcha turkiy tillarda uchraydi. Bu so'z o'zbek tilining ayrim shevalarida, jumladan, Andijon, Namangan guruh shevalarida hozir ham shu ma'noda qo'llanadi, biroq bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati" so'zligiga kiritilmagan.

Farg'ona vodiysi, jumladan, Andijon viloyati toponimiyasida *yor* tarkibli geomorfologik oykonimlar ham anchagina: *Yorqishloq* (Jalaq. t.), *Oqyor, Kuyganyor* (Andijon t.), *Yorboshi* (t.) va h.k.

Oqyor Oqbura daryosi nomi bilan bog'liq. Oqbura irmog'ining Qoradaryoga quyilish joyida paydo bo'lgan qishloq *Oqyor* (oq jar, jarlik) deb ataladi.

Yorboshi – Andijon, Buloqboshi tumanlaridagi mahallalarning nomi. Toponim tarkibidagi *yor* so'zi aynan *jar* ma'nosini anglatadi.

Yorqishloq – Jalalquduq tumaniga qarashli Oqbura daryosi bo'yidagi qishloq. 2009 yilda shaharcha maqomini olgan Qishloq qadimda Oqbura daryosi yoqasida paydo bo'lganligi sabab shunday nom olgan. Demak, oykonim *yor, ya'ni jar atrofidagi qishloq* ma'nosiga ega.

2. **Tepa tarkibli oykonimlar.** Tepa – relʼefni ifodalovchi geografik terminlardan biri: yer sathidan baland, yuqori bo'lgan do'ng joyni ifodalaydi. Masalan, *Qo'shtepa* (Qo'rg'ontepa t.), *Oqtepa, Qumtepa* (Olt. t.), *Maslahattepa, Sarbontepa* (Andijon sh.), *Ashqoltepa. Dardoqtepa* (Qo'rg'ontepa t.), *Xontepa*, (Buloqb.t.) *Toshtepa, Qoratepa* (Asaka t.), *Mingtepa* (Mar. t.) kabi. Bu oykonimlarning har biri o'ziga xos ma'noga ega. Masalan, *Oqtepa* – Oltinko'l tumanidagi qishloq nomi. Oykonim morfemik jihatdan oq, tepa morfemalaridan tarkib topgan, katta tepalik degan ma'nolarni anglatadi. Qishloq shunday tepalikda joylashganligiga ko'ra *Oqtepa* deb atalgan. Shuningdek, viloyat toponimiyasida *jar va tepa* apellyativlari qo'shiluvidan tarkib topgan *Jartepa* (Baliqchi t.) nomli mahalla ham bor.

TILSHUNOSLIK

3. Dasht tarkibli oykonimlar. Asli *dala*, *cho'l*, *sahro* ma'nolarini anglatuvchi *dasht* so'zi tarixiy-etimologik jihatdan forscha bo'lib, o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Ekilmay yotgan suvsiz yer, cho'l.
2. Keng, ochiq maydon; dala [7:578].

Mazkur so'z vodiy shevalarida ham *ekin ekilmay yotgan*, *suvsiz*, *tosh-shag'alli yer*, *dala* ma'nolarida qo'llanadi. Farg'ona vodiysi, jumladan, Andijon viloyati toponimiyasida *dasht* so'zidan qishloq, mahalla indikatorlari vositasida hosil qilingan oykonimlar ham kuzatiladi: *Dashtmahalla* (Izboskan t.) kabi. Demak, bu geomorfologik oykonimlarning bu turi *ekin ekilmay yotgan*, *suvsiz*, *toshloq yer*, *dala maydonlarida bunyod etilgan aholi manzili* ma'nosini anglatadi.

XULOSA

Andijon viloyati geomorfologik oykonimlari aholi manzillarining relf xususiyati motivatsiyasi mahsuli bo'lib, hududning tabiiy-geografik, xususan, yerning relf xususiyatlarini ifodalaydi. Bunday nomlar vositasida obyektning shunday xususiyatlari yillar, asrlar davomida saqlanadi hamda kam o'zgaradi, ya'ni boshqa oykonimlar singari u yoki bu sabab bilan boshqasiga o'zgartirila bermaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лосоний тадқиқи: Филол. фан бўйича фалсафа док. диссер. – Фарғона, 2018.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
3. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1963. – III т.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 2-ж.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.
6. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысль, 1984.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 1-ж.